

## JAMIYATNI AXBOROTLASHTIRISH, JAMIYAT TARAQQIYOTIDA AXBOROTLASHTIRISHNING ROLI VA AXBOROT MA'DANIYATI.

### Dehqonova Zulkumor

Farg‘ona Davlat Universiteti, San’atshunoslik fakulteti, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi, 22.29- guruh talabasi.

[gulbahor77zulkumor.77@gmail.com](mailto:gulbahor77zulkumor.77@gmail.com)

**Annotatsiya:** mazkur maqolamning mazmuni shundan iboratki, axborotlashtirish o‘zi nima, undan qanday foydalanish kerak, jamiyatda uning tutgan o‘rni va boshqalar haqida so‘z boradi. Jamiyatga axborotlashtirish ma’daniyatini olib kirish, uning salbiy va ijobjiy oqibatlari batassil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** axborot inqilobi, axborot texnologiyasi(AT), telekommunikatsiya, axborotlashgan jamiyat, ommaviy axborot, axborot tizimi va tizimlari, jamiyatni axborotlashtirish.

**Аннотация:** содержание данной статьи заключается в том, что в ней говорится о том, что такое информатизация, как ее использовать, ее роль в обществе и т.д. Привнося культуру информации в общество, подробно объясняются ее отрицательные и положительные последствия.

**Ключевые слова:** информационная революция, информационные технологии (ИТ), телекоммуникации, информационное общество, массовая информация, информационные системы и системы, общественная информация.

**Abstract:** the content of this article is that it talks about what is informatization, how to use it, its role in society, etc. Introducing the culture of information to society, its negative and positive consequences are explained in detail.

**Key words:** *information revolution, information technology (IT), telecommunications, information society, mass information, information system and systems, public information.*

Ma'lumotlarni qayta ishlash sohasida Keskin o'zgarishlar bo'lganligi sababli insoniyat tarixida ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishiga olib kelgan to'rtta axborot inqilobini ko'rsatish mumkin.

**Birinchi inqilob** – yozuvning yaratilishi. Bu sifat va miqdor jihatidan oldinga qo'yilgan ulkan qadam bo'ldi. bilimlarni ajdodlardan avlodlarga yetkazish imkoniyati paydo bo'ldi.

**Ikkinci inqilob** (XVI asr o'rtalari) – kitob nashr etilishi. Bu sanoat, jamiyat, ma'daniyat va ish faoliyatini tashkil etishda Keskin o'zgarish yasadi. Bu esa axborot manbasini yig'ishga imkoniyat yaratadi.

**Uchinchi inqilob** (XIX asr oxirlari) - elektrning kashf etilishi. Bu tufayli telegraf, telefon, radio yuzaga keldi va bular axborotni istalgan hajmda uzatish va jamlashga imkon yaratdi.

**To'rtinchi inqilob** (XX asrning 70- yillari) – mikroprotsessor texnologiyasining kashf etilishi. Bu kashfiyot asosida kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari, axborotlarni uzatish tizimlari (axborot kommunikatsiyalari yaratildi). To'rtinchi axborot inqilobi yangi soha – yangi texnologiyalar, uslublar, texnik vositalarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan axborot sanoatini oldingi qatorga ilgari surmoqda. Axborot sanoatning eng muhim tarkibiy qismlariga axborot texnologiyalarining barcha turlari, ayniqsa telekommunikatsiya kiradi.

Axborot texnologiyasi (AT) – obyekt, jarayon yoki hodisaning holati haqida yangi axborot olish uchun ma'kumotlarni yig'ish, qayta ishlash va uzatish bo'yicha vosita va uslublar jamlanmasidan foydalanadigan jarayondir.

Telekommunikatsiya – kompyuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida ma'lumotlarni masofadan uzatishdir.

Axborotlashgan jamiyat haqida olimlar turlicha fikrdalar. Yapon olimlarining hisoblashlaricha, axborotlashgan jamiyatda kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbayidan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotni qayta ishslashni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta'minlashga imkon beradi. Jamiyatni rivojlantirishda harakatlantiruvchi kuch moddiy maxsulot emas, balki axborot ishlab chiqarish bo'lmog'i lozim. Moddiy mahsulotning esa tannarxi ancha qimmat bo'ladi. Bu uning qiymatida innovatsiya, dizayn va marketing ulushining oshishini anglatadi.

Axborotlashgan jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzu ham o'zgaradi. Bu jamiyatning sanoat jamiyatidan farqi shundaki, axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqiladi va iste'mol etiladi. Shuning uchun bu jamiyatda aqliy mehnat darajasi oshadi. Insondan ijodiy qobiliyat talab etiladi, bilimlarga ehtiyoj oshadi.

Axborotlashgan jamiyat – faoliyat ko'rsatuvchilarining ko'pchiligi axborotni, ayniqsa uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishslash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan band bo'lgan jamiyatdir.

AQSH, Yaponiya, Anglya, Germaniya kabi axborot sanoati rivojlangan mamlakatlarni axborotlashgan jamiyat deyish mumkin.

### **Axborotlashgan jamiyatning quyidagi ijobiylari xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:**

- Axborot inqirozi muammosi hal etilgan, ya'ni axborot mo'l-ko'lligi va axborot taqchilligi o'rtaqidagi ziddiyat yechilgan;
- Boshqa zaxiralarga qiyoslanganda axborot ustuvorligi ta'minlangan;
- Jamiyat rivojlanishining asosiy shakli axborot iqtisodiyoti bo'ladi;

➤ Eng yangi axborot texnika va texnologiyalari yordamida avtomatlashtirilgan holda bilimlarni hosil qilish, saqlash, qayta ishlash va foydalanish jamiyati shakllanadi;

➤ Axborot texnologiyasi inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olib, global xususiyatga ega bo‘ladi;

➤ Butun insoniyat tarixining axborot birligi shakllanadi;

➤ Zamonaviy axborot vositalari yordamida har bir insonning axborot zaxiralariga erkin kirishi amalga oshadi;

### **Ijobiy tomonlardan tashqari salbiy oqibatlarni ham ko‘rsatish mumkin:**

➤ Ommaviy axborot vositalarining jamiyatga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatishi ;

➤ Axborot texnologiyalari odamlar va tashkilotlarning shaxsiy hayotini buzib yuborishi;

➤ Sifatli va ishonchli axborotni tanlash muammosining mavjudligi;

➤ Ko‘pgina odamlarning axborotlashgan jamiyat muhitiga moslashishining qiyinligi;

➤ Axborotlarni qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi odamlar va iste’molchilar orasida muammolar vujudga kelish xavfi.

Shuni qayd etish lozimki, har qanday ko‘lamdagagi tashkilotning kerakli darajada ishlashi uchun faqat ushbu resurslarning o‘zi yetarli emas, chunki ishlab chiqarish uchun moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari mavjudligining o‘zi kifoya qilinmaydi. Uni qanday ishlatishni bilish, bu sohadagi texnologiyalar haqida ko‘plab axborotga ham ega bo‘lish talab etiladi. Shu bois ham axborot, axborot resurslari hozirgi kunda alohida iqtisodiy kategoriya sifatida qabul qilinmoqda. Axborot resurslari, ommaviy axborot va axborot tizimlariga O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi 560-II son “ Axborotlashtirish to‘g‘risida” gi Qonuniga binoan quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Axborot resurslari alohida hujjatlar, hujjatlarning alohida to‘plamlari, axborot tizimlaridagi (kutubxonalardagi, arxivlardagi, fondlardagi, ma’lumotlar bazalaridagi va boshqa axborot tizimlaridagi) hujjatlar va hujjatlarning to‘plamlari.

**Ommaviy axborot** – bunga cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo‘ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovisual hamda boshqa habarlar va materiallar kiradi.

**Axborot tizimi** – axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari. Agar axborot resurslari oqilona tashkil etilsa va o‘rinli foydalanilsa, u mehnat, moddiy va energetik resurslar ekvivalenti sifatida ishtirok etish mumkin.

**Axborot tizimlari** – alohida hujjat, hujjatlar to‘plami hamda axborot tizimlari (kutubxona, arxiv, fond, ma’lumotlar banklari, turli axborot tizimlari) dagi hujjatlar tizimlaridir.

**Jamiyatni axborotlashtirish** – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga bo‘lgan extiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy, ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy – texnikaviy jarayonidir.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni quyidagi muammolarning hal etilishini talab etadi:

- Hisoblash texnikasi vositalarini jamiyat faoliyatining barcha tarmoqlariga tadbiq qilish;
- Jamiyat a’zolarini hisoblash texnikasi vositalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish;

▪Jamiyat a'zolarining turli xil ehtiyojlarini qondirishd axborot resurslaridan to'la va samarali foydalanishlarini ta'minlash.

Axborot tizimlari va texnologiyalari yildan-yilga kishilik faoliyatining turli sohalarida yanada keng qo'llanilib bormoqda. Ularni yaratish, ishga tushirish va keng qo'llashdan maqsad – jamiyat va insonning butun hayot faoliyatini axborotlashtirish borasidagi muammolarni hal etishdir.

“Barchamiz bir xaqiqatni anglab yetishimiz lozim – O‘zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning tasdig‘ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi Davlatlar ko‘magida iqtisodiy tarmoqlarini rivojlantirish , modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida va boshqa misollarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin.” , - deb ta’kidlagan edi respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov.

Hozirgi jamiyani axborotlashtirish va globallashuv jarayoni bizning yurtimizga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Masalan, talim jarayonini oladiga bo‘lsak, o‘rta maktablar, ixtisoslashgan mакtab va kollejlarda baholash mezoni va boshqa ma’lumotlar o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan elektronniy holatda internet orqali yetkazilyapti, ular bunda Kundalik.com dan foydalanishadi. Oliy ta’lim va undan keying ta’limlar ham mana shunaqa aralash yoki butunlay online ta’lim o‘qitilmoqda. Bunday ta’limlar HEMIS, Kredit modul va boshqa shunga o‘xhash tizimlarda yuritilmoqda. Buning foydali tomoni hammasi haqqoniy bo‘ladi, buni inson emas texnika, texnologiya tekshiradi. Kutubxonalarni, bozorlarni ham misol keltirishimiz mumkin. To‘g‘ri bunday holatga ko‘pchilik tushunmasligi, o‘rgana olmasligi mumkin, lekin biz ham butun dunyodagi yuksalishlarga sabab bo‘layotgan narsalardan andoza olib, o‘zimizda sinab ko‘rishimiz kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.X.Alimov, O‘.T.Xayitmatov, A.F.Hakimov, G.T.Yulchiyeva, O.X.Azamatov, U.A.Otajonov; “Axborot tizimlari” o‘quv qo‘llanma, Toshkent – 2003;
2. Nurmuhammad Duisenov, Bekjon Ahmedov “Jamiyatni axborotlshtirish. Jamiyatning axborot potensiali”. <https://researchgate.net> . PDF.
3. <https://m.wikipedia.org> sayti
4. B.Y.Xodiyev va boshqalar. “Informatika”, oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. TDIU.2007.17.
5. R.X.Alimov va boshqalar, “Axborot texnologiyalari va tizimlari” , o‘quv qo‘llanma . TDIU.2007.